

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar oyida, Buxoro viloyatida jami 736,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	736,3	110,7
Buxoro sh.	97,5	88,1
Kogon sh.	7,1	90,3
Olot tumani	45,2	2,4 m.
Buxoro tumani	23,7	103,7
Vobkent tumani	14,9	104,4
G'ijduvon tumani	25,7	109,5
Kogon tumani	12,0	111,9
Qorako'l tumani	24,9	64,4
Qorovulbozor tumani	73,1	197,7
Peshku tumani	15,3	102,8
Romitan tumani	64,9	103,2
Jondor tumani	60,8	101,7
Shofirkon tumani	13,9	104,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026- yilning yanvar oyida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,8 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 114,7 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,7 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 100,2 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,5 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	72,5	15,7	36,1
o'sish sur'ati, %	64,2	170,4	94,7
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	135,3	136,7	48,9
o'sish sur'ati, %	111,4	109,1	111,5
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	291,1	-	-
o'sish sur'ati, %	108,9	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 124,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,6 % ga ko'payib, 16,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,6 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil etgan holda 320,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 39,5 % ni yoki 291,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	124,3	320,9	291,1	115,7	110,4	108,9
Buxoro sh.	2,4	81,1	14,0	13,6	103,5	97,4
Kogon sh.	0,2	4,6	2,3	95,8	85,9	99,7
Olot tumani	23,6	17,1	4,5	19,1 m.	129,2	100,7
Buxoro tumani	0,4	16,7	6,6	138,3	104,1	100,9
Vobkent tumani	1,3	9,7	3,9	31,9 m.	92,8	103,3
G'ijduvon tumani	5,3	11,7	8,7	3,6 m.	86,9	102,4
Kogon tumani	0,4	6,1	5,5	28,2	125,0	128,1
Qorako'l tumani	0,4	20,3	4,2	2,6	101,8	111,4
Qorovulbozor tumani	70,4	2,0	0,7	2,3 m.	46,5	41,8
Peshku tumani	0,7	8,0	6,6	-	85,9	118,3
Romitan tumani	5,8	51,4	7,7	19,6	190,3	120,3
Jondor tumani	-	55,3	5,5	-	101,5	102,6
Shofirkon tumani	0,8	7,9	5,2	-	87,6	121,0

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Vobkent tumanida (31,9 m.), Olot tumanida (19,1 m.) va G'ijduvon tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 3,6 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Romitan tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 190,3 %), Olot tumanida (129,2) va Kogon tumanida (125,0 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul: Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	Ijrochi: Sh. Xodjaev 65 223-81-99 (8020)	Manzil: 200100, Buxoro sh., S.Ayniy ko'chasi, 3-uy
--	---	---